



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-yil 2-son

VOLUME 5 / ISSUE 2 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.2.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Jurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas’ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

E. Sharipov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva, Y. Mahmudov, M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Tasdiqnom

№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 28.04.2025-yilda bosmaxonaga topshirildi.
Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog‘i: 15,8
Adadi: 100. Buyurtma: № 84.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarmasi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

MAS’UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI

J. Blum – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (Boston, AQSh)

M. Vishovatiy – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

X. Xayitov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

I. To‘raboyev – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

S. Xolboyev – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Raxmonkulova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Ne‘matov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» – «Yurisprudensiya» – «Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:

О. Чориев

Редакторы:

Э. Шарипов, Е. Ярмолик, Э. Мустафаев,
К. Абдувалиева, Й. Махмудов,
М. Шарифова, Ш. Бекназарова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387

Свидетельство

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
28.04.2025.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 15,8. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 84.

Отпечатано в типографии

Ташкентского государственного
юридического университета.

100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Хошимхонов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев – доктор философии по юридическим наукам, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев – кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Высшем судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова – доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов – доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров – кандидат филологических наук, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

E. Sharipov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev,
K. Abduvalieva, Y. Makhmudov,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

Certificate

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 28.04.2025.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 15,8.

Units: 100. Order: № 84.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITOR-IN-CHIEF

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

A. Khoshimkhonov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Akhmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Kh. Khayitov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

S. Kholboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Rakhmonkulova – Associate Professor of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne'matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 8 **ALIYEV ILHOMJON MUROD O'G'LI**
Sun'iy intellekt texnologiyalarini O'zbekiston Respublikasi adliya organlari faoliyatiga tatbiq etish

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 17 **RUSTAMBEKOV ISLAMBEK RUSTAMBEKOVICH, GULYAMOV SAID SAIDAXRAROVICH**
Zamonaviy kiberkorupsiya: tushunchasi, muammolari va Markaziy Osiyo hududida unga qarshi kurashish choralarini
- 30 **JUMAG'ULOV ALISHER ERNAPASOVICH**
Sukuk: yangi huquqiy institutga tarixiy nazar
- 38 **INOYATOV NODIRBEK XAYITBOY O'G'LI**
Sun'iy intellekt va avtonom transport vositalari: raqamli davrda huquq subyektiligi masalalari
- 47 **KAN YEKATERINA EDUARDOVNA**
Sog'liqni saqlash sohasida sun'iy intellektni joriy etishdagi normativ to'siqlar
- 55 **SAIDOV BOBUR BAXROMJONOVICH**
Metaolamlarni huquqiy tartibga solish: virtual dunyoda yurisdiksiya va intellektual mulkni himoya qilish masalalari
- 81 **NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA**
AQShda robot-maslahatchilar faoliyatini tartibga solish xususiyatlari
- 91 **NURULLAYEV UMIDBEK XUDAYBERDIYEVICH**
O'zbekiston va xorijiy davlatlar qonunchiligida axborot vositachisining huquqiy maqomi masalalari

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 101 **ABDULLAYEVA RISOLAT SUNNATOVNA**
Chet el fuqarolari bilan nikohni qayd etish masalalari va bu boradagi xalqaro qonunchilik asoslari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 111 **ABDUSAMADOVA ZARINA SHOBIDDIN QIZI**
Xorijiy mamlakatlarda yer servitutining turlari va ularning huquqiy tabiati
- 125 **TURDIYEV BOBIR SOBIROVICH**
Atrof-muhitga oid qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki: xalqaro standartlar va xorij tajribasi

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 141 **RAXMANOV SHUXRAT NAIMOVICH**
Xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqining umumiy xalqaro huquq tizimidagi o'ri: nazariy-metodologik yondashuvlar

12.00.13 – INSON HUQUQLARI

- 150 **NOSIROVA MARJONA NEGMAT QIZI**
Inson huquqlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtiroki tushunchasi va tavsifi

12.00.14 – HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH.
PROBATSIIYA FAOLIYATI

- 161 **XO'JAMBERDIYEV FARRUX KOMILOVICH**
Jamoat xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirish: Turkiya tajribasi va O'zbekiston uchun istiqbollar

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО.
ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

8 АЛИЕВ ИЛХОМЖОН МУРОД УГЛИ

Внедрение технологий искусственного интеллекта в деятельность органов юстиции
Республики Узбекистан

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО.
МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

17 РУСТАМБЕКОВ ИСЛАМБЕК РУСТАМБЕКОВИЧ, ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ

Современная киберкоррупция: понятие, проблемы и пути противодействия
в Центральноазиатском регионе

30 ЖУМАГУЛОВ АЛИШЕР ЭРНАПАСОВИЧ

Сукук: исторический взгляд на новый правовой институт

38 ИНОЯТОВ НОДИРБЕК ХАЙИТБОЙ УГЛИ

Искусственный интеллект и автономные транспортные средства: вопросы правовой
субъектности в цифровую эпоху

47 КАН ЕКАТЕРИНА ЭДУАРДОВНА

Нормативные барьеры внедрения искусственного интеллекта в здравоохранении

55 САИДОВ БОБУР БАХРОМЖОНОВИЧ

Правовое регулирование метавселенных: вопросы юрисдикции и защиты интеллектуальной
собственности в виртуальных мирах

81 НАБИРАЕВА ЗАРНИГОР АКМАЛОВНА

Особенности регулирования деятельности роботов-консультантов в США

91 НУРУЛЛАЕВ УМИДБЕК ХУДАЙБЕРДИЕВИЧ

Правовой статус информационного посредника в законодательстве Узбекистана и зарубежных стран

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ
ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

101 АБДУЛЛАЕВА РИСОЛАТ СУННАТОВНА

Вопросы регистрации браков с иностранными гражданами и международно-правовые основы
в этой сфере

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

111 АБДУСАМАДОВА ЗАРИНА ШОБИДДИН КИЗИ

Типы сервитутов в зарубежных странах и их правовая природа

125 ТУРДИЕВ БОБИР СОБИРОВИЧ

Участие общественности в принятии решений, касающихся окружающей среды:
международные стандарты и зарубежный опыт

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

141 РАХМАНОВ ШУХРАТ НАИМОВИЧ

Место дипломатического права международных организаций в системе международного права:
теоретико-методологические подходы

12.00.13 – ПРАВА ЧЕЛОВЕКА

150 НОСИРОВА МАРЖОНА НЕГМАТ КИЗИ

Понятие и характеристика участия некоммерческих негосударственных организаций
в защите прав человека

12.00.14 – ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ
БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

161 ХУЖАМБЕРДИЕВ ФАРРУХ КОМИЛОВИЧ

Совершенствование обеспечения общественной безопасности: опыт Турции и перспективы для
Узбекистана

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

- 8 **ALIEV ILKHOMJON MUROD UGLI**
Implementation of artificial intelligence technologies in the activities of the justice authorities of the Republic of Uzbekistan

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 17 **RUSTAMBEKOV ISLAMBEK RUSTAMBEKOVICH, GULYAMOV SAID SAIDAKHRAROVICH**
Modern cybercorruption: concept, challenges, and countermeasures in the Central Asian region
- 30 **JUMAGULOV ALISHER ERNAPASOVICH**
Sukuk: a historical view of the new legal institution
- 38 **INOYATOV NODIRBEK KHAYITBOY UGLI**
Artificial intelligence and autonomous vehicles: issues of legal subjectivity in the digital era
- 47 **KAN EKATERINA EDUARDOVNA**
Regulatory barriers to the implementation of artificial intelligence in healthcare
- 55 **SAIDOV BOBUR BAKHROMJONOVICH**
Legal regulation of metaverses: issues of jurisdiction and intellectual property protection in virtual worlds
- 81 **NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA**
Features of regulating robo-advisors in the USA
- 91 **NURULLAEV UMIDBEK KHUDAYBERDIYEVICH**
Issues of the legal status of an information intermediary in the legislation of Uzbekistan and foreign countries

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

- 101 **ABDULLAEVA RISOLAT SUNNATOVNA**
Issues of marriage registration with foreign citizens and the foundations of international legislation in this regard

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 113 **ABDUSAMADOVA ZARINA SHOBIDDINOVNA**
Types of servitudes in foreign countries and their legal nature
- 125 **TURDIEV BOBIR SOBIROVICH**
Public participation in environmental decision-making: international standards and foreign experience

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

- 141 **RAKHMANOV SHUKHRAT NAIMOVICH**
The role of the diplomatic law of international organizations in the general system of international law: theoretical and methodological approaches

12.00.13 – HUMAN RIGHTS

- 150 **NOSIROVA MARJONA NEGMAT KIZI**
The concept and descriptions of the participation of non-governmental non-profit organizations in the protection of human rights

12.00.14 – CRIME PREVENTION. ENSURING PUBLIC SAFETY. PROBATION ACTIVITY

- 161 **KHUJAMBERDIYEV FARRUKH KOMILOVICH**
Improving public safety ensuring: the experience of turkey and prospects for Uzbekistan

Kelib tushgan / Получено / Received: 07.02.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 19.04.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 28.04.2025

DOI:10.51788/tsul.jurisprudence.5.2./YZFM7105

UDC: 347.4(045)(575.1)

SUKUK: YANGI HUQUQIY INSTITUTGA TARIXIY NAZAR

Jumag'ulov Alisher Ernapasovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Biznes huquqi kafedrasida dotsenti v.b.
ORCID: 0000-0001-9764-8441
e-mail: alisher.ernapasovich@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada islom kapital bozorining asosi bo'lgan sukukning paydo bo'lish tarixi ko'rib chiqildi. Ushbu atamaning tarixiy ma'nolari, jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida undan moliyaviy munosabatlarda foydalanish shakllari va u bilan bog'liq huquqiy institutlarning evolyutsiyasi tadqiq qilindi. Tadqiqot mavzusi bir-birini to'ldiruvchi ikki yo'nalishda yoritildi. Birinchidan, sukukning ilk shakllanish bosqichi tahlil etildi: uning qo'llanishi, zarurati asoslanib, tegishli tarixiy davrda foydalanish shakllari tasvirlandi. Shuningdek, sukuk so'zining lug'aviy va terminologik ma'nolari mazmuni ochib berildi. Ikkinchidan, Usmonlilar imperiyasi davrida sukukning muomalada bo'lishiga e'tibor qaratildi. Bu davrda dastlab to'lov vositasi bo'lgan sukuk keyinchalik investitsion maqsadlarga xizmat qila boshlagan. Muallif hozirgi qonunchiligimizda mustahkamlangan infratuzilma obligatsiyalari o'z mohiyatiga ko'ra Usmonlilar imperiyasi davrida amalda bo'lgan sukukning tarixiy shakliga borib taqalishi haqidagi fikrlarini bayon etgan. Maqola yakunida nafaqat islomiy moliyaviy vositalar va qimmatli qog'ozlarning nazariy-huquqiy hamda tarixiy asoslarini teranlashtirishga, balki sukukning huquqiy hodisa sifatidagi tarixiy evolyutsiyasini yanada to'liqroq tushunishga xizmat qiladigan xulosalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, chek, shartnoma, sukuk, obligatsiya, qimmatli qog'oz, emissiya

СУКУК: ИСТОРИЧЕСКИЙ ВЗГЛЯД НА НОВЫЙ ПРАВОВОЙ ИНСТИТУТ

Жумагулов Алишер Эрнапасович,
и. о. доцента кафедры «Бизнес-право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье рассматривается история возникновения сукука как основы исламского рынка капитала. Исследуются исторические значения данного термина, формы его использования в финансовых отношениях на различных этапах развития общества, а также эволюция связанных с ним правовых институтов. Тематика исследования раскрывается с двух взаимодополняющих позиций. Во-первых, анализируется ранний этап становления сукука: обосновывается необходимость его применения, описываются формы использования в соответствующий исторический период, а также разъясняются лексическое и терминологическое значения самого понятия «сукук». Во-вторых, внимание сосредоточено на обращении сукука в период Османской империи, где изначально выступавший в роли платёжного средства инструмент со временем стал использоваться в инвестиционных целях. Автор приходит к выводу, что современные инфраструктурные облигации, закреплённые

в действующем законодательстве, по своей сути восходят к исторической форме сукука, практиковавшейся в Османский период государственности. В заключении статьи представлены выводы, направленные не только на углубление теоретико-правовых и исторических основ исламских финансовых инструментов и ценных бумаг, но и на более полное осмысление эволюционного пути сукука как правового явления.

Ключевые слова: инвестиция, чек, договор, сукук, облигация, ценная бумага, эмиссия

SUKUK: A HISTORICAL VIEW OF THE NEW LEGAL INSTITUTION

Jumagulov Alisher Ernapasovich,

Acting associate professor
of Department of Business Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. This article explores the origins of sukuk as a foundation of the Islamic capital market. It investigates the historical meanings of the term, the various forms of its use in financial relations across different stages of societal development, as well as the evolution of the legal institutions associated with it. The research topic is approached from two complementary perspectives. First, it examines the early phase of sukuk development: the necessity of its application is substantiated, its forms of use during the relevant historical period are described, and the lexical and terminological meanings of the term “sukuk” are clarified. Second, the focus shifts to the circulation of sukuk during the Ottoman Empire, where the instrument, initially serving as a means of payment, gradually began to be used for investment purposes. The author concludes that modern infrastructure bonds, as enshrined in current legislation, essentially trace their origins back to the historical form of sukuk practiced in the Ottoman legal tradition. The concluding section presents findings aimed not only at enriching the theoretical, legal, and historical foundations of Islamic financial instruments and securities but also at offering a deeper understanding of the evolutionary trajectory of sukuk as a legal phenomenon.

Keywords: investment, cheque, contract, sukuk, bond, security, issuance

Kirish

Bugungi global iqtisodiy tizimda moliyaviy instrumentlarning xilma-xilligi va innovatsiyasi iqtisodiyotning barqaror rivojlani-shida muhim o‘rin tutadi. An’anaviy moliyaviy vositalardagi innovatsiyalar bilan birgalikda zamonaviy islomiy moliyaviy vositalar ham rivojlanib bormoqda. Shu ma’noda “sukuk” so‘nggi yillarda keng ommalashmoqda. Sukuk – islomiy qoidalarga muvofiq ishlab chiqilgan moliyaviy vosita bo‘lib, unga ko‘p hollarda an’anaviy obligatsiyalarga muqobil sifatida qaraladi. Sukukning o‘ziga xosligi shundaki, u foizga emas, mulkka sheriklik asosida egalik qilish va undan foyda olish tamoyillariga asoslanadi.

Sukukning ahamiyati islomiy moliyaviy bozorlarning kengayishi bilan bir qatorda, jahon moliyaviy tizimiga yangi yondashuvlarni

olib kirishida namoyon bo‘lmoqda. An’anaviy obligatsiyalar kapitalni jalb qilishda asosiy vositalardan biri bo‘lsa ham, sukuk islomiy moliyaviy tamoyillarni hisobga olgan holda investorlarga yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu vosita nafaqat musulmon davlatlarida, balki dunyoning turli burchaklarida, jumladan, G‘arb mamlakatlarida ham joriy etilmoqda. Sukuk global moliyaviy bozorning bir qismi sifatida xalqaro investorlar orasida tobora ommalashib borayotgani uning tarixan paydo bo‘lish va shakllanish jarayonini o‘rganish lozimligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, so‘nggi yillarda mamlakati-mizda sukukni amaliyotga joriy etish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-aprelda qabul qilingan “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoli-

yati to'g'risida"gi Qonunida ilk bor mikromoliya tashkilotlariga islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar ko'rsatish huquqi berildi. Bundan tashqari, islomiy moliyaviy vositalardan milliy kapital bozori amaliyotida foydalanishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Kapital bozori to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Loyihada islomiy qimmatli qog'ozlarga bag'ishlangan 11 moddadan iborat alohida bob nazarda tutilmoqda. Qonun loyihasining qabul qilinishi bilan mamlakatimizda sukuk muomalasiga ruxsat beriladi. O'z navbatida, amaliyotchilar va ilmiy hamjamiyatda uning mazmunini to'liqroq tushunish, tarixiy paydo bo'lish bosqichlari haqida batafsil ma'lumot olish zarurati paydo bo'ladi.

Sukukning paydo bo'lishi va rivojlanishiga uzoq tarixiy jarayonning natijasi sifatida qaralishi lozim. Ismail Eris sukukning 1990-yillardan keyin paydo bo'lgani haqidagi da'volarni rad etadi [1, 23-b.]. U islomiy iqtisodiyotning rivojlanishi, shuningdek, zamonaviy moliyaviy instrumentlarning islomiy moliya prinsiplariga moslashtirilishiga bo'lgan ehtiyoj bilan chambarchas bog'liq.

Sukukning rivojlanishini o'rganish huquqiy va iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi [2, 88-b.]. Avvalo, u islomiy moliyaviy tamoyillarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Ikkinchidan, sukukning xalqaro moliyaviy bozordagi o'rni va ahamiyatini baholash orqali global investitsiya imkoniyatlarini tahlil qilish mumkin. Uchinchidan, sukukni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar va ularning rivojlanish tendensiyalarini o'rganish boshqa moliyaviy instrumentlar uchun ham qimmatli tajriba taqdim etishi tabiiy.

Mamlakatimizda sukuk huquqshunos tadqiqotchilar tomonidan deyarli o'rganilmagan. Biroq mavzuga milliy iqtisodchi olimlar bir necha bor murojaat qilgan [3, 126-b.]. Mamlakatimiz matbuotida sukuk haqida ilk publitsistik maqolalar 2020-yildan boshlab e'lon qilingan. Mazkur chiqishlarning maqsadi su-

kuk haqida dastlabki ma'lumotlarni ommaga yetkazish bo'lgan. Ayni paytda xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan sukuk faol tadqiq etilmoqda. Shunday bo'lsa-da, ingliz tilidagi sukuk haqidagi tadqiqotlarda uning tarixiy kelib chiqishi haqida batafsil ma'lumotlar kam uchraydi. Bo'shliq muayyan ma'noda Usmonlilar imperiyasidagi moliyaviy munosabatlar tarixini o'rgangan tarixchi olimlar tomonidan to'ldiriladi.

Material va metodlar

Maqolada sukukning huquqiy institut sifatida shakllanishi tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Sukuk bilan bog'liq huquqiy munosabatlar tarixi milliy huquqshunoslar tomonidan o'rganilmagani bois, bu borada o'zbek tilida tadqiqotlar va materiallar mavjud emas. Maqola arab va turk olimlarining ingliz tilidagi tadqiqotlari asosida tayyorlandi.

Sukukning yangi huquqiy institut sifatidagi tarixiy evolyutsiyasini o'rganish, uning shakllanish jarayonlarini tahlil qilish, turli davrlarda undan qanday foydalanilganini aniqlashda tarixiy-huquqiy metodlar, jumladan, tarixiy-solishtirma, tarixiy-geneologik, tarixiy-fenomenologik va tarixiy-huquqiy iqtisodiy metodlardan foydalanildi. Ushbu usul orqali sukukning ilk islomiy moliyaviy vositalardan tortib, zamonaviy global bozorgacha bosib o'tgan yo'lini o'rganish mumkin. Shuningdek, tarixiy kontekstda sukukning an'anaviy obligatsiyalarga muqobil vosita sifatida qanday shakllangani va rivojlanganini aniqlash imkoniyati mavjud. Tarixiy tahlil sabab-oqibat aloqalarini o'rganib, sukukning bugungi global iqtisodiyotga ta'sirini tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot natijalari sukukning tarixiy rivojlanish evolyutsiyasini tizimli tushunishga yordam beradi. 14 asr oldin paydo bo'lgan ushbu huquqiy institutdan turli tarixiy davrlarda turfa maqsadlarda foydalanilgan. Dastlab u naqd pulsiz hisob-kitoblarga asos bo'lgan, keyinchalik bugungi mohiyatiga ya-

qinlashib, investitsiyalashda foydalanilgan. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasida keltirilgan infratuzilma obligatsiyalari va davlat g'aznachilik obligatsiyalari sukukning avlodlari ekanligi ma'lum bo'ladi.

Tadqiqot natijalari turli maqsadlarga xizmat qiladi. Jumladan, Islom kapital bozorining nazariy asoslarini tadqiq qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, sukuk va u bilan bog'liq huquqiy munosabatlar mazmunini to'liq tushunishga ko'maklashadi. Va nihoyat, sukukning ilk davridagi huquqiy munosabatlar ko'lamini va tabiatini anglashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Sukuk aktivlar, pul oqimlari, mol-mulk, mulkiy huquqlar yoki loyihalarning qisman egaligini ifodalovchi moliyaviy sertifikatdir. Umuman olganda, sukuk jamoaviy investitsiyalash vositasi hisoblanadi. Sukuk "islomiy obligatsiyalar" nomi bilan ham tanilgan. Islom moliyaviy tashkilotlari uchun buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI) tomonidan uning rasmiy ta'rifi berilgan [4, 468-b.]. Unga ko'ra, sukuk moddiy aktivlar, ulardan foydalanish huquqi va xizmatlar yoki muayyan loyihalar va maxsus investitsiya faoliyatining aktivlariga bo'linmagan egalik ulushlarini ifodalovchi teng qiymatli sertifikatlaridir. Mohiyatan, sukuk kichik investitsiyalarni birlashtirish shaklidir. Aksiya, obligatsiya va investitsiya paylari ham bu vazifani bajaradi. Ushbu moliyaviy vositalar kichik hajmdagi investitsiyalarni katta quvvatga aylantiradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti jadal rivojlanmoqda. Iqtisodiy taraqqiyot kapitalga bo'lgan ulkan talabni paydo qiladi. Kapital talabi qariz, kredit, xalqaro qariz, loyiha yoki kompaniya ustav kapitalida ulushli ishtirok kabi usullar orqali qondirilishi mumkin. Bu o'rinda sukukning milliy qonunchilik uchun yangi huquqiy voqelik ekanini ta'kidlash joiz. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozorida to'g'risida"gi Qonuni o'rniga "Kapital bozori to'g'risida"gi qonun-

ni qabul qilish rejalashtirilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentabrda PQ-291-sonli qaroriga ko'ra, yangi qonun loyihasini 2024-yil iyulga qadar ishlab chiqish vazifasi belgilangan edi. Unda ilg'or xorijiy tajriba asosida qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni birlashtirishni nazarda tutuvchi, to'g'ridan to'g'ri amal qiladigan qonun loyihasini ishlab chiqish maqsad qilingan. Qonun loyihasi anchagina katta ishlab chiqilib, 128-moddani o'z ichiga oladi.

Qonun loyihasining asosiy yangiliklaridan biri sifatida islomiy qimmatli qog'ozlarga uchun alohida bob ajratilganini aytish mumkin. Ammo "sukuk" atamasidan loyihada foydalanilmagan. Uning o'rniga "islomiy sertifikat" atamasi qo'llangan. Biroq xalqaro moliyaviy amaliyotlarda hamda xorijiy va milliy ilmiy tadqiqotlarda sukuk atamasidan foydalaniladi [5, 10-b.].

Sukuk yoki islomiy sertifikatlar mamlakatimiz qonunchiligi uchun yangi huquqiy voqelik hisoblanadi. Shu bois, sukukning mohiyatini chuqur anglash uchun uning tarixiga nazar solish muhim ahamiyatga ega.

Sukukning bugungi kundagi "islomiy sertifikat" ma'nosi investitsiyalash vositasi ekanini bildiradi. Islomiy sertifikat investorlarning mablag'lari jalb etilganining tasdig'idir. Ammo o'tmishda sukukdan boshqa moliyaviy maqsadlarda ham foydalanilgan. Sukukning paydo bo'lishi aynan islom dini bilan bog'lanadi, deb bo'lmaydi. Islom dini paydo bo'lishidan oldin ham Arab yarimorolida savdo munosabatlari taraqqiy etgan edi. Savdoning gullab-yashnashi mustahkam va ilg'or moliyaviy munosabatlarni talab etadi.

Dunyoda birinchi zamonaviy korporativ sukuk 1990-yilda Malayziyaning "Shell MDS" kompaniyasi tomonidan emissiya qilingan [6, 108-b.]. Shu bois, ko'pchilik olimlar sukukning paydo bo'lishini shu davr bilan bog'laydilar. Ammo tarixga chuqurroq nazar solinsa, undan ancha qadimda sukukdan turli maqsadlarda foydalanilganini bilish

mumkin. Uning tarixini shartli ravishda uch davrga bo'lish, nazarimizda, maqsadga muvofiq. Islom dini paydo bo'lishidan Usmonlilar imperiyasi tashkil etilgungacha bo'lgan payt – ilk davr, o'rta davr – Usmonlilar imperiyasi hukmronlik qilgan paytlar bo'lib, ayniqsa, XIV–XVIII asrlar sukuk uchun muhim ahamiyatga ega. Nihoyat, sukuk tarixining so'nggi davri – XX asrning oxirlarida zamonaviy moliyaviy bilimlar va texnologiyalar asosida unga murojaat qilishdan boshlangan, deyish o'rinli bo'ladi. Sukuk tarixining uchinchi davri alohida tadqiq etilishi rejalashtirilgani bois, ushbu maqolada sukuk tarixining ilk va o'rta davrlariga nazar solinadi.

Sukuk arabcha ko'plikdagi ot bo'lib, uning birligi “sakk” hisoblanadi. So'zma-so'z “yozma hujjat, rasmiy hisobot, guvohnoma” kabi turli ma'nolarni anglatuvchi bu so'z islom tarixida huquqiy, moliyaviy va tijoriy vosita sifatida turli o'rinlarda qo'llangan. Masalan, oziq-ovqat talonlari (tovar kuponlari), qarz tilxatlari, to'lov topshiriqnomalari va qozilik hujjatlari shular jumlasidandir [7, 83-b.]. Jengiz Kallek islom tarixida birinchi marta ikkinchi xalifa Umar asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini taqsimlashda muhtojlarning huquqlarini ko'rsatuvchi hujjat shaklida “sukuk al-arzaq”, ya'ni oziq-ovqat talonlarini joriy etganini aniqladi [7, 84-b.].

VII asr oxirlarida Ummaviylar davlati harbiylarga haq to'lash uchun sukukdan foydalangan [8, 14-b.]. Bu sukuk davlat omborlaridan belgilangan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarini olish huquqini ifodalagan. Sukukdan hukmdorlar tomonidan moddiy ko'mak va nafaqalar tayinlash va taqsimlash amaliyotida foydalanilgan [9, 457-b.].

Ushbu moddiy ko'mak tegishli kishilarga sukuk shaklida yuborilgan bo'lib, ular bu turdagi hujjatni qabul qilgandan so'ng undan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan. Biroq amalda ular sukuklarni olmasdan turib, undan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa odamlarga oldindan sotishgan. Bunday amaliyotning asosiy sababi shundaki, sukuklar

uzoq masofalardan yuborilar va ehtiyojmand kishilar ularning yetib kelishini kutib tura olmasdi. Shu bois, ular sukuklarni qo'lga kiritishdan avval sotib yuborishga majbur bo'lishgan. Bundan ko'rinadiki, o'sha davrda sukuk muomaladagi likvidli aktiv bo'lgan.

Abbosiyalar davriga kelganda sukukdan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar o'zgara boshladi. Musulmon savdogarlari Horun ar-Rashid hukmronligi paytida (IX asr) xalqaro savdo munosabatlarida chek yoki “sakk” tizimidan foydalana boshlaganlar. Ushbu davrda hisob-kitoblarning naqdsiz shaklda amalga oshirilishi muhim iqtisodiy kashfiyotlardan biri edi.

Islom tijorat huquqidagi bir qancha institutlar o'rta asr Yevropasiga xalqaro savdodagi huquqiy odatlar tarzida savdogar orqali o'tkazilgan. Olimlar bugungi kunda naqd pulsiz to'lovni anglatuvchi “chek” so'zi arabcha “al-ṣak” so'zidan kelib chiqqan va u yozma hujjatni ifoda etgan, degan xulosaga kelishgan [10, 13-b.]. Chek so'zi ingliz tiliga “*cheque*” deb tarjima qilinadi.

O'sha davr musulmon mamlakatlari iqtisodiyotida sherikchilik muhim rol o'ynagan. Fiqhiy kitoblarda shirkatlar haqidagi qoidalar alohida boblarda kelgan. Bugun kunda umumiy huquq tizimida mavjud bo'lgan cheklangan sheriklik yoki qit'a huquq tizimidagi kommandit shirkat tushunchalari islom huquqida *muzoraba* bitimi orqali amalga oshirilgan. Muzoraba bitimida bosh sherik – *muzorib* kapitallarni jamlagan va undan ustalik bilan foydalanib, daromadni shakllantirgan. Kapital qo'shuvchilar esa “*robbul mol*” deb atalgan. Muzorib va robbul mollar o'rtasidagi munosabatlar, xususan, foyda va ziyonni taqsimlash masalalari yozma bitimlar asosida tartibga solingan. Sherikchilik orqali cheklanmagan doiradagi investorlarning mablag'lari jalb etilgan. Ushbu munosabatlar tarixi zamonaviy tarixchilar tomonidan batafsil o'rganilmagani sababli, investorlar va muzorib o'rtasida qanday hujjat muomalada bo'lganini bilish qiyin.

N. Reamer va J. Downing investment tarixini o'rgangan holda shunday xulosaga kelinganki, investitsiyalashda demokratlashuv XVI asrga to'g'ri keladi. Ungacha investitsiya qilish imkoniyatiga faqat aholining boy qatlami ega bo'lgan, XVI asrdan o'rta qatlam ham bunday imkoniyatni qo'lga kirita boshladi [11, 87-b.]. Musulmon jamiyatlarida vaziyat boshqa edi. Aholining barcha qatlamlari savdoni sheriklik asosida moliyalash imkoniyatiga ega bo'lgan.

Ilk davrning o'ziga xosligi shundan iboratki, sukuk hujjat, qarzni tasdiqlovchi dalil, to'lov vositasi hamda maosh berilganini aks ettiruvchi hujjat sifatida ishlatilgan. Ammo undan bevosita investitsiya kiritishda foydalanilgan haqida ma'lumotlar kam. Bu ilk davrda musulmon mamlakatlarida aholi investitsiyalashda qatnashmagan, degan xulosani bermaydi. Buning uchun chuqurroq o'rganishlar olib borish zarur bo'ladi.

Islom tarixida, ayniqsa, Usmonlilar saltanati davrida sukuk atamasining yana bir ma'nosi qozilar o'z hukmlarini va ko'rib chiqilayotgan ish bo'yicha ma'lumotlarni yozib qoldirgan huquqiy hujjatni anglatgan. Bu hujjat qozilar tomonidan rasmiylashtirilgan va muhim sud qarorlarini o'z ichiga olgan [11, 15-b.].

Huquqiy, moliyaviy va tijoriy munosabatlarda "sakk" so'zining yana bir ma'nosi qarz majburiyatini ifodalovchi hujjatdir. Qarz qimmatli qog'ozlari ma'nosidagi "sakk" (sakku haqq) atamasidan amalda islomgacha bo'lgan davrlarda ham foydalanilgan [7, 30-b.].

Zamonaviy sukukni qadimda qo'llangan sukukka to'g'ridan to'g'ri bog'lab bo'lmaydi. Adabiyotlarda bir xil nom bilan atalishi ularning aynan bir xil narsa ekanini yoki zamonaviy sukuk islomning ilk davrida qo'llangan sukuk shaklining namoyon bo'lishini anglatmaydi. Ular o'rtasida muhim farqlar mavjud: sukukning klassik qo'llanishi investitsiya maqsadlarini ko'zlamagan va islomiy tijorat shartnomalari asosida tuzilmagan. U to'lov usuli sifatida va insonlarning huquqlarini

qayd etish uchun ishlatilgan. Bundan tashqari, klassik sukuk savdosining qonuniyligi o'sha davrdagi olimlar tomonidan shubha ostiga olingan. Shu sababli, sukukning klassik qo'llanishiga tayanish zamonaviy sukuk rivojlanishining tarixiy istiqbolini to'liq aks ettirmaydi.

Arrif, Safari va Muhammadning ta'kidlashicha, zamonaviy sukukning ilk marta qo'llanishi milodiy 1285-yilga borib taqaladi. O'sha paytda Usmonlilar imperiyasi salb yurishlari oqibatida vayron bo'lgan infratuzilmasini qayta qurish va takomillashtirish uchun xazina mablag'larining bir qismini qarz beruvchi jamoatchilikka mulk sifatida ajratish orqali katta miqdordagi mablag'larni jalb qilgan edi [13, 14-b.]. Jizakjaning fikriga ko'ra, zamonaviy sukukning ildizlari XV asrga borib taqaladi. Uning ta'kidlashicha, har bir zamonaviy sukuk tuzilmasi uchta alohida elementni o'z ichiga oladi: daromad hosil qilish, bu daromadni qimmatli qog'ozlarga aylantirish va maxsus maqsadli tashkilot (SPV) tashkil etish [14, 16-b.].

Daromad olish mexanizmi Usmonlilar imperiyasida qo'llangan naqd vaqf ("istig'lol" nomi bilan tanilgan) ko'rinishida vujudga kelgan. Jizakjaning ta'kidlashicha, zamonaviy ijara sukukning asl mohiyati naqd vaqf tizimida mujassam bo'lgan. Bunda vaqf qilingan mablag' xayriya maqsadlarini amalga oshirish uchun investitsiya qilinadi. Bu esa vaqf (xayriya ehsoni)ni tashkil etishning asosiy sababidir. Bu jarayon vaqf boshqaruvchisi va qarz oluvchi o'rtasidagi mulkni sotish va qayta ijaraga olish bitimini o'z ichiga oladi. Bunda qarz oluvchining ko'chmas mulki sotiladi va keyinchalik qayta sotib olinadi. Qarz oluvchi o'z mulkida yashashni davom ettiradi va uni qayta sotib olinguncha belgilangan muddat davomida ijara haqi to'lab boradi.

Jizakja daromad elementining sekyuritizatsiyasini 1775-yilda Usmonlilar imperiyasi tomonidan joriy etilgan "ishom" tizimiga bog'laydi. Ishom imperiyaga tegishli bo'lgan mavjud daromad oqimini sekyuritizatsiya

qilish tizimini anglatadi. Zamonaviy sukuk keyinchalik daromad yaratishni nazarda tutsa, ishom oldindan mavjud bo'lgan daromad manbasiga asoslangan edi. Shuningdek, ishom ikkilamchi bozorda ham muomalada bo'lgan [15, 377-b.].

Shunday qilib, ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, G'arb jamiyati sukuk amaliyotini o'z moliyaviy bozorlarida takomillashtirib kengaytirdi va keyinchalik ishonchli boshqaruv, maxsus moliya tashkiloti (SPV) hamda qimmatli qog'ozlashtirish kabi yangi g'oyalarni kiritdi [16, 7-b.].

Yuqorida sukuk tarixining ikki muhim davri tahlil qilindi. Sukukning ilk davrida undan to'lov va taqsimot usuli sifatida foydalanilgan bo'lsa, o'rta davrda esa u kichik investitsiyalarni birlashtirish orqali turli loyihalarni moliyalashtirishda qo'llangan. Ilk davrda sukuk naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining yaratilishiga asos soldi. O'rta davrda esa sukuk orqali doimiy daromad manbalari yaratilgan. Ikki davrda ham davlat va hukumatlar sukukning asosiy foydalanuvchilari hamda tashabbuskorlari bo'lgan.

Xulosalar

Qonunchiligimizda yangi huquqiy voqelik sifatida namoyon bo'layotgan sukukning ilk davrlardagi tarixiy evolyutsiyasiga nazar solindi. Tahlillar natijasida sukuk yaqindagina kashf etilgan moliyaviy vosita emasligi, u uzoq tarixiy bosqichni bosib o'tgani hamda zamonaviy moliyaviy vositalarga asos bo'lgani namoyon bo'ldi. Maqolada tah-

lil etilgan ikki tarixi davrda ham sukukdan ommaviy huquqiy munosabatlarda foydalanilgan. Sukukning xususiy huquqiy munosabatlardagi o'rni haqida yetarli ma'lumotlar bo'lmagani uchun tahlillar olib borilmadi. Tarixan savdo yaxshi rivojlangan jamiyatlarda kichik sarmoyalarni ulkan moliyaviy quvvatga aylantirish amaliyoti yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lgan. Savdo tarixi bilan bog'liq tarixiy ma'lumotlarni chuqur o'rganish orqaligina ushbu masalaga yechim topish mumkin.

Qadimda jamiyatlar turli iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal etishda sukukdan foydalangan. Ayniqsa, ilk davrda uning naqd pulsiz to'lov tizimini yaratishdagi ahamiyatini alohida ta'kidlash o'rinli. Aynan shu vazifa orqali Yevropa o'rta asrlarda yangi moliyaviy vositalarni amaliyotga joriy etdi. Natijada moliya bozorlaridagi innovatsiyalar kichik sarmoyalarni oson jamlash va tavakkalchilikni diversifikatsiya qilishga imkon berdi.

Sukuk tarixining o'rta davrida u o'z mohiyatiga mos keldi, deb xulosa qilish mumkin. Usmonlilar imperiyasi tomonidan emissiya qilingan sukuk muomalada bo'lish, daromad keltirish xususiyatlariga ega edi. Va eng asosiysi, sukuk bu davrda o'zining bunyodkorlik funksiyasini amalga oshirdi. Islom kapital bozorida investitsiyalar spekulatsiyadan daromad ko'rishga emas, balki ijtimoiy infrazuzilmalarni yaratishga yo'naltirilishi yaqqol namoyon bo'ldi.

REFERENCES

1. Ismail E. Historical origins of sukuk as a popular instrument in modern islamic finance. *Journal of Islamic Law Studies*, 2021, no. 38, pp. 103–127. Available at: <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/2563365>
2. Mamatmurodov F.F. Islom moliyasining asosiy tamoyillari va mohiyati [Basic principles and essence of Islamic finance]. *International Conference on Economics, Finance, Banking and Management*, 2024, pp. 85–94. Available at: <https://econferences.com/index.php/6/article/view/102>

3. Mirzaxmedova A. Islom qimmatli qog'ozlarini O'zbekiston moliya bozorida joriy qilish yo'llari va muammolari [Ways and problems of introducing Islamic securities in the financial market of Uzbekistan]. *Economic development and analysis*, 2024, vol. 2, pp. 192–199. DOI:10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss5-pp192-199
4. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions. Available at: <https://aaofii.com/ss-17-investment-sukuk/?lang=en>
5. Al-Ali S. Raising Capital on Şukūk Markets: Structural, Legal and Regulatory Issues. Springer International Publ., 2019. Available at: DOI: 10.1007/978-3-030-14536-1
6. Ataniyazov J.X., Xamidova F.A., Pulatova M.B. Xalqaro moliya institutlari [International financial institutions]. Tashkent, Economics Finance Publ., 2020. Available at: https://library-samdukf.uz/wp-content/uploads/2023/04/Xalqaro-moliya-institutlari-Oquv-qollanma-J.X_Ataniyazov-va-boshqalar.pdf
7. Kallek C. Bir Hukuk ve Maliye Terimi Olarak “Sak” [“Sak” as a Legal and Financial Term]. 2008.
8. Hassan A.A.H. Sales and contracts in early Islamic commercial law. 1986.
9. Manzūr M.B. *Lisān Al-‘arab*, [Arabic language]. 1 ed. Vol. 10, p. 457.
10. Schacht J. An introduction to Islamic law. Clarendon Publ., 1993.
11. Reamer N., Downing J., Investment: A History. Columbia University Publ., 2016. DOI: 10.7312/ream16952
12. Kaya S., Mahkeme Kayıtlarının Kılavuzu: Sakk Mecmuaları [Guide to Court Records: Sakk Magazines]. *Journal of Turkish Studies Lit.*, 2005, pp. 379–416.
13. Ariff M., Safari M., Mohamed S., Sukuk securities, their definitions, classification and pricing issues. In: *The Islamic Debt Market for Sukuk Securities*. Edward Elgar Publ., 2012.
14. Cizakca M., Domestic borrowing without the rate of interest: gharar and the origins of sukuk. 2010.
15. Genç. Mâlikâne. DİA, 516-518. Cezar, Osmanlı Maliyesinde Bunalım ve Değişim Dönemi [The Period of Crisis and Change in Ottoman Finance]. P. 33.
16. Haneef R., Recent trends and innovations in Islamic debt securities: prospects for Islamic profit and loss sharing securities. *Camb. Harv. Law Sch. Publ.*, 2005.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 2-SON

VOLUME 5 / ISSUE 2 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.2.